

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10899810>

YAPON VA O'ZBEK TILLARIDAGI HOZIRGI DAVOMLI ZAMON SHAKLLARINING QIYOSIY TAHLILI

Inoyatov Javohir Ne'matillo o'g'li

O'zDJTU stajor-o'qituvchisi

Annotatsiya. Yapon tili zamon ifodalanishida faqatgina uch shakl mavjudligi yapon tilini o'rganuvchilar uchun bir tarafdin oson bo'lsa, boshqa tarafdin zamoni to'g'ri qo'llashda qiyinchiliklarga sabab bo'ladi. Qiyinchiliklarga sabab bo'lishi shundaki, barcha ma'nollarning aynan shu uch shaklda ifodalanishi majburiydir. Yapon tili zamoni chuqur o'rganishda nafaqat zamonga xos birliklar, balki yapon tilidagi boshqa birliklarni ham chuqur o'rganish va yetarli nazariy bilimga ega bo'lish, o'zbek tiliga zamoni to'g'ri tarjima qilish va eng muhimi o'z ona tilimizni taqqoslab o'rganish uchun, avvalambor o'zbek tilini yaxshi bilishimiz kerak.

Tayanch so'zlar: Fe'l zamonlari, zamon kategoriyasi, o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon, davomiylik, takroriylik.

KIRISH

Kundalik hayotimizda tilga bo'lgan ehtiyojimiz sezilarli darajada yuqori hisoblanadi. Ana shu tildan foydalanish davomida biz aytmoqchi bo'lgan fikrimiz o'zgalarga tushunilishi oson bo'lishi uchun turli xil iboralar va grammatikalardan foydalangan holda gaplar tuzamiz. Ana shu jarayonda har bir tilning qiyinlik darajasini uning grammatik jihatdan murakkab tuzilmasi belgilaydi deb ayta olishimiz mumkin. Ana shunday tuzilmalardan biri zamon kategoriyasi hisoblanadi. Ayniqsa biz o'rganmoqchi bo'lgan til ona tilimiz kabi zamon ifodalovchi har bir ma'no alohida qo'shimcha bilan shakllanadigan tildan farqli o'laroq, bir qo'shimcha ko'plab zamon ma'nolarini bildirib kelsa, bu tilni o'rganish bir muncha qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Yapon tili ham ana shunday tillardan biri hisoblanadi. Yapon tili zamon kategoriyasida eng ko'p aspektni o'z ichiga qamrab olgan zamon shakli bu hozirgi zamon davomli shakli, ya'ni テイル形 hisoblanadi.

1. Davomiylik - harakat yoki hodisa so'zlovchi tomonidan kuzatilgan paytda, ana shu harakat yoki hodisaning davom etayotganligini ifodalaydi. Bu aspekt hozirgi va kelasi zamon shakli “-している” orqali ifodalanadi. Hozirgi zamon shakli o'zbek tilida “-yap”, “-moqda” kabi qo'shimchalar shaklida tarjima qilinadi:

松本さんはテレビでニュースをみている。Matsumoto

televizorda

yangiliklarni ko‘rmoqda.

Bu aspekt buyruq gaplarda “turmoq” so‘zi orqali tarjima qilinadi:

もうすこし待っていてください。Yana biroz kutib turing.

Kelasi zamon shakli esa -yotgan shaklidagi asosiy fe‘ldan so‘ng bo‘lmoq fe‘lini qo‘shish orqali ifodalanadi.

A: 今日午後3時ごろどこにいる。Bugun kechasi soat 3 larda qayerda bo‘lasan.

B: そのころ大学で勉強している。U payda universitetda dars qilayotgan bo‘laman.

Davomiylikning o‘tgan zamon shakli esa “-していた” ko‘rinishida bo‘lib, harakat va hodisa davomiyligi kuzatilgan payt o‘tgan zamonning ma’lum bir vaqtiga to‘g‘ri keladi. Odatda, bu vaqtni bildiruvchi “-とき” (paytda), “-ごろ” (larda) kabi birliklar bilan ifodalanadi. O‘zbek tiliga “-gan edi” ko‘rinishida tarjima qilinadi.

朝6時ごろ、雨が降っていた。Ertalab soat oltalarda, yomg‘ir yog‘ayotgan edi.

Hozirgi zamon davomiylikni ifodalovchi “-している” va o‘tgan zamon davomiylikni ifodalovchi “-していた” ning farqi shundan iboratki, hozirgi zamon davomiylik aspektida nutq so‘zlangan payt (NSP) kuzatuv payti (KP) (harakat va hodisaning kuzatilgan payti) ga to‘g‘ri keladi. O‘tgan zamon davomiylik aspektida esa kuzatuv payt nutq so‘zlangan paytdan oldin sodir bo‘ladi. Kelasi zamon davomiylik aspekti esa kuzatuv payti nutq so‘zlangan paytdan keyin sodir bo‘lishini ko‘rsatadi. Buni quyidagi chizma orqali ko‘rishimiz mumkin.

Bu yerda muhim jihat shundan iboratki, harakat va hodisa kuzatilgan paytda harakat va hodisa davom etayotgan bo‘ladi. Va shu harakat va hodisaning qancha vaqt davom etganligi muhim emas.

3. Takroriylik - Bir xil harakat va hodisaning takrorlanishini ifodalaydi.

Bunda asosan gapning egasi bir kishi yoki bir necha kishi bo‘lishi mumkin. Gap egasi bir kishi bo‘lsa, “毎日” (har kun), “毎週” (har hafta), “毎年” (har yil) kabi so‘zlar ishtirok etib, aynan takroriylik aspektini ifodalanayotganligini bildiradi. O‘zbek tilida bu aspekt hozirgi zamon shakli orqali ifodalanadi.

Misol uchun:

私は毎日6時に起きている。Men har kuni soat oltida uyg‘onaman.

Gap egasi bir necha kishi bo‘lsa gapda gapning egasini ko‘pligini bildiruvchi so‘zlar: “多くの” (ko‘plab), “たくさんの” (ko‘p) ishtiroki muhim hisoblanadi. Va bu bir necha kishidan iborat gap egasining birin ketin kesimdan anglashilgan ish-harakatni bajarishi yoki holatda bo‘lishi davom etadi. O‘zbek tiliga asosiy hozirgi zamon shakli

yasovchisi “-moqda” deb tarjima qilinadi. Misol uchun:

世界では栄養失調で多くの子どもが亡くなっている。Dunyoda to'yib ovqatlanmaslik sababli ko'plab bolalar vafot etmoqda.

毎年約1万人が交通事故で亡くなっている。Har yili yo'l transport harakati qoidasi buzilishi tufayli o'n mingga yaqin odamlar o'lmoqda.

2. “テイル” zamon shaklning juda ham ko'plab ma'nolarni ifodalashi. O'zbek tilida har bir ma'no alohida qo'shimcha orqali ifodalanadi. Farqli o'laroq, yapon tilida esa so'z o'zaginging o'zgarishi bu ma'nolarni ifodalaydi. Bunga yapon tilidagi している shaklini misol qilib keltirishimiz mumkin. Bu shakl orqali davomiylilik, natija va boshqa aspektlar ifodalanadi. Bu yapon tilini o'zlashtiruvchi o'zbek tili so'zlashuvchilarga nutqda qaysi aspekt ifodalanayotganini aniqlashda qiyinchilik tug'diradi. Lekin bu muammoni yechimi sifatida, o'zbek tilidagi sifatdosh qo'shimchasi bo'lgan “-gan” birligi olindi. Shuningdek, yapon tilida fe'ning ma'no jihatidan turlari (holat ifodalovchi fe'llar, harakat ifodalovchi fe'llar va boshqalar) ni keng ko'lamda o'zlashtirish ham ushbu muammoga yechim bo'ladi deb hisoblandi.

3. Yapon tilidagi aspekt ifodalovchi ko'makchi fe'llarning zamon shakllari bilan ma'no jihatidan teng kelib qolishi. Misol uchun している va しつつある kabi birliklarning har ikkisi davomiylilikni bildiradi. Bu yapon tilini o'zlashtiruvchi ongida har ikkalasini teng qo'llay olish mumkin degan noto'g'ri tushunchaga olib keladi. Bu muammoga yechim o'laroq しつつある kabi aspekt ifodalovchi birliklarni o'zbek tilidagi ko'makchi fe'llarga taqqoslab o'rganish olindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbek tilidagi adabiyotlar

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2009.
2. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Qarshi: Nasaf, 2005.
3. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. Nabiyeva D. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. – T.: Tasvir, 2009.

Yapon tilidagi adabiyotlar

4. 庵功雄・清水佳子 (2016) 『上級日本語文法演習 時間を表す表現』 スリーエーネットワーク
5. 庵功雄(2019a) 「意味領域から考える日本語のテンス・アスペクト体系の記述」 『言語文化』 55、一橋大学